O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDAGI INNOVATSION TADQIQOTCHILIK SHAKLLANTIRISHNI IJTIMOIY-FALSAFIY RIOVJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Xudoyberdiyeva Mahbuba Axmadovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy gumanitar” fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘quvchi yoshlarda ta’lim jarayonida ijodiy tafakkurni shallantirish orqali ulardagi iqtidor va qobilatni shakllantirishning pedagogik jihatlari ijtimoiy-falsafiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Olamni bilish, tafakkur, olam, tadqiqotchilik, ijodiy tafakkur, jamoa, shaxs, ilmiy bilish, dunyoqarash pedgogik tafakkur.

Аннотатция: В данной диссертации представлен социально-философский анализ педагогических аспектов развития талантов и способностей у молодых студентов путем стимулирования их творческого мышления в процессе обучения.

Ключевые слова: Знание мира, мышление, вселенная, исследование, творческое мышление, команда, личность, научное знание, мировоззрение, педагогическое мышление.

Anotation: This thesis presents a socio-philosophical analysis of the pedagogical aspects of developing the talents and abilities of young learners by fostering creative thinking within the educational process.

Keywords: Knowledge of the world, thinking, universe, research, creative thinking, team, individual, scientific knowledge, worldview, pedagogical thinking.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvchan, turli faoliyat shakllariga qiziqadigan, erkin fikrlovchi, shaxsiy nuqtayi nazarga ega, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa ta’limning quyi bosqichlaridanoq o‘quvchilarning individual

bilm, ko‘nikma va malakalarinigina emas, balki tadqiqotchilik toifasidagi meta predmet kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini ham kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shu bois “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv -tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish” [1;1] maqsadi o‘quvchilarda tadqiqotchilik mpetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish, izlanish, o‘z ustida ishlash va maqsadli faoliyatga yo‘naltiradigan yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga intensiv qo‘llash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Olamni bilish – ijodiy jarayon. Tafakkur va ijodni o‘zaro bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Tafakkursiz ijod bo‘lishi mumkin emas.O‘z navbatida ijod bu – fikrlash, tafakkur jarayoni bo‘lib hisoblanadi.

O‘quvchining tadqiqotchilik salohiyati undagi ijodkorlik sifatlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu izlanuvchi N.O‘rinova qayd etganidek, an’anaviy tafakkur qoliplaridan voz kechish tafakkurning moslashuvchanligi, inson fe’l-atvorining originallik, tashabbuskorlik va nostandartlik kabi bir qator xususiyatlari orqali o‘z aksini topadi [2;49]. Ijod – ijodiy tafakkur, fikrlash mahsuli. Ijod tushunchasining mohiyatini aniqlamoq uchun dastlab, “Tafakkur nima? Ijodiy tafakkur deganda nima nazarda tutiladi?” savollarni qo‘yish o‘rinli.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok

qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

Ijodiy tafakkur deganda ijodkor shaxsiga xos xususiyat, intellektual xislat nazarda tutiladi [3;35]. O‘quvchilardagi innnovatsion ijodiy tafakkur – bu narsa va hodisalarni shunchaki xissiy qabul qilish degani emas. Ijodiy tafakkurli o‘quvchilar aql kuchini, intelluktual saloxiyatni ishga solishida boshqalardan ajralib turadi. Shu ma’noda ijodiy tafakkur yuritish deganda olamni xam o‘ziga xos xissiy qabul qilish, ham aql ko‘zi bilan ko‘rish, ya’ni butun borlig‘i bilan anglash nazarda tutiladi. Ijodiy tafakkur yuritish olamni tayyor bilimlar, tayin qoliplar vositasida anglash emas. Ijodiy tafakkur olamni boshqalardan farqli, o‘zgacha ko‘rish, boshqalar ko‘rmagan, bilmagan narsani bilishdir. Ijodiy fikr yuritish olamni shunday o‘zga xolatda, yangicha ko‘rishki, bu hol inson ruxiyatida, kayfiyatida o‘zgacha xolat, ko‘tarinkilikni vujudga keltiradi. Ana shunda inson nimanidir xis qiladi, yaratishga intiladi, tadqiqotlar yuzaga keladi.

Olamni o‘ziga xos, original ko‘rish ijodiy tafakkurning eng muxim tomoni hisoblanadi. Ijodiy fikrlash mustaqil ravishda muammolarni aniqlash, ularni xal qilishning noan’anaviy usullarini topish va muammolar yechimlarini mustaqil topa bilishda namoyon bo‘ladi.

Ijodiy tafakkur namoyon bo‘lishning eng yuqori shakli ijod hisoblanadi.

Ijod –insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo’ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin ijodga taallluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi. Ijod – fan va texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi [4;238].

O‘quvchilardagi ijod esa mazmuni, xususiyatlari, usullari, o‘ziga xosligi, takrorlanmasligi, kamyobligi bilan xarakterlidir. Ijod natijasi o‘laroq ijtimoiy ahamiyatga molik moddiy va madaniy qadriyatlar yaratiladi, ilgarida ma’lum bo‘lmagan dalillar, xususiyatlar, qonuniyatlar kashf etiladi, bilish va olamni o‘zlashtirishning yangi usullari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy mehnat faoliyati jarayonida mavjud materiallardan inson va jamiyat manfaatlariga mos keladigan yangi narsalarni yarata olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarda yangicha tadqiqotlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Ijod moddiy va ma’naviy madaniyat sohalarida turlicha shakllarda namoyon bo‘ladi: Texnika ijodiyoti, ishlab chiqarish sohasidagi ijodiyot; ijodning san’atga, siyosatga xos ko‘rinishlari va ilmiy ijod shular jumlasidandir. Ijodiy jarayon – bilimlarga ham taalluqli.

Shuningdek, inson faoliyati natijasida o‘z mehnatidan qoniqishi, ish jarayonida yangiliklarni kashf etishga harakat qilishi, muammolarga o‘rinli yechimlarni tavsiya qilishda motivatsiya ham ijodiy faoliyatning komponentlari sanalib, qo‘yilgan masalani oldin egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bog‘lay olish hamda yangi vaziyatlarda qo‘llay bilish, obyektning aniqlanmagan o‘ziga xos xususiyatlarini izlash jarayoni ekanligi ham ta’kidlanadi [5;10].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ta’limiy,madaniy, innovatsion, texnologik, axborotli muhitni shakllantirish natijasida o‘quvchilar asta-sekin ijod olamiga kira boshlaydilar. Bu esa o‘quvchilarning ta’lim muhitida yashashlari, imoniyatlardan ko‘proq foydalanishlari, ya’ni turli tadqiqotlar amalga oshirishlariga xizmat qilishi mumkin. Buning natijasida o‘quvchilar o‘z-o‘zlari va atrofdagilarga savollar bera boshlaydilar. Hissiyotlari doirasida mavjud voqelikni idrok etishi, tushunishi, ko‘rishiga, yuzaga keltirishga erishadilar. Ushbu jarayonda tug‘iladigan fikrlar, his-tuyg‘ular o‘quvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijasi hisoblanadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlardan turib voqelik haqida fikrlash va ularni tushunish layoqatini shakllantiradi.

O‘quvchilardagi ijodiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlagan tadqiqotlarga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar farazlar va fundamentlar izlanishlar borligining guvohi bo‘lamiz. Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki endi xarbiy qudrat emas, balki intelektual salohiyat, aql-idrok, fikr ilg‘or texnologiyalar xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun hozirgi kunda yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rganish masalasi har qachongidan dolzarbdir. Axborot olamidagi ustunlik ko‘p nasani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muxim siyosiy axamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi kunda yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish masalasi har qachongidan dolzarbligidir. Axborat olamidagi ustunlik ko‘p narsalarni hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikriga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasini nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shaxsdagi mustaqil tafakkur uning aqliy qobilyati bo‘lib, shaxs o‘z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo‘yadi. Bu tafakkur turida shaxsda amaliy va ilmiy faraz qila olish, natijani ko‘z oldiga keltira olish, qo‘yilgan vazifani esa o‘zi, boshqalarning ko‘magisiz, ko‘rsatmasiz hal qilishi kuzatiladi. Muamoni hal qilish yo‘lida esa turli yo‘l usul va vositalarni o‘zi topadi [6;336]. Yosh davrlari nuqtai nazaridan tafakkur xususiyatlarini tushuntirishda turlicha fikrlar mavjuddir. Ayni o‘spirinlik davrida tafakkur tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyatlarga ega bo‘lib boradi, lekin fikr yuritishda obyektiv va subyektiv kamchiliklar uchraydi. Bu yoshda gohida o‘z fikriga ega emaslik, usul va vositalarning o‘zi tomonidan tanlamaslik va qarorlar qabul qilishda boshqalar fikriga ergashish tushunilar ekan. O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shaklantirish uchun ularning nutqini rivojlantirish, o‘z fikrlarni ximoya qila olishlariga, tanqid qilish va baxslashishga o‘rgatish kerak.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy tafakkur— bu qimmatli va asl g‘oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo‘nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda “kundalik” ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shug‘ullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san’at bilan bog‘liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarda funktsional bo‘lgan vazifalarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ПФ-5712-сон Фармони// Халқ сўзи. –Тошкент, 2019 йил 30 апрель. -№88(7318).
2. Ўринова Н.М. Педагогларда ижодкорлик қобилиятини узлуксиз ривожлантириш усуллари // Uzluksiz ta’lim. – Тошкент, 2013. – № 1.)
3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T., «Sharq» nashr., 2004.
1. J.Xasanboyev, X.To‘raqulov, M.E.Xaydarov, O.U.Xasanbayeva Pedagogika fanidan izohli lug‘at. Toshkent O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti, 2008.
2. Болтаева Ш. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий педагогик асосларини такомиллаштириш: Пед. фан. фалс. док. (PhD) ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.
3. Ummatqulova N.U O‘smirlarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari https://doi.org/10.53885/edinres.2024.02.1.071№ 2-336 Education and innovative research 2024 y. № 2